

**“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati  
Kuzatuv kengashining  
2023 yil 6 fevraldagi  
06-02/1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga  
13-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: I-8

Sana: 20.02.2023 yil

Imzo

**“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
ICHKI NAZORAT SIYOSATI**

**Toshkent – 2023 yil**

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining Ichki nazorat siyosati (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qaror va farmoyishlari va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda “Smart bank” AJ (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi)ning Ustavi va ichki meyoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Siyosat ichki nazorat tizimining maqsadlari va vazifalarini, uning faoliyat yuritish tamoyillarini, shuningdek ichki nazorat uchun mas’ul Bankning tarkibiy tuzilma va xodimlarini belgilaydi.

2. Ichki nazorat bu Bankning quyidagi sohalarda Bank maqsadlariga asoslangan va yetarlicha nisbatan erishilganligi tasdig‘ini olish maqsadida tavakkalchiliklar boshqaruvi, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan uzluksiz amal qiluvchi jarayon:

faoliyat samaradorligi va unumдорligи, shu jumladan aktivlarni ishlatish samaradorligi, foyda olish va aktivlarni himoya qilish darajasi;

moliya hisobotining ishonchliligi va shubhasiz to‘g‘riliqi;

bank faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va huquqiy meyorlarga muvofiqlik.

3. Ichki nazorat tizimi – Bankda ichki hujjatlar bilan qat’iy belgilangan, Bank Taftishchisi, Ichki audit boshqarmasi, Bank Kuzatuv kengash va xodimlar (ichki nazorat subyektlari) tomonidan barcha funksiyalar bo‘yicha tashkil qilingan va amalga oshiriladigan ichki nazorat choralar, tartibotlari va usullarini tekshiruvchi tashkiliy tuzilmalar majmui.

4. Ichki nazorat tartibotlari – ichki nazorat subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlari va Bankning ichki hujjatlarini buzilishlarini aniqlash, Bank tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish samaradorligini, shuningdek ichki nazorat tartibotlarini realizatsiya qilish jarayonida ichki nazorat subyektlarining o‘zaro munosabatlarini baholash uchun yo‘naltirilgan choralar majmui.

### **2-bob. Siyosat maqsadlari**

5. Ichki nazoratni tashkil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad Bank aksiyadorlari va mijozlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta’minlashdan iborat.

6. Ichki nazorat operativ rejimda quyidagilarni ta’minlash majburiyatiga ega:  
aktivlarning yaxshi saqlanishi, resurslardan tejaml va samarali foydalanish;

amaldagi qonun hujjatlari va Bankning ichki meyoriy hujjatlari talablariga rivoja qilinishi;

Bankning o‘rta muddatli va uzoq muddatli davr uchun rivojlanish

strategiyalari hamda biznes-rejalari bajarilishi;

Bankning buxgalteriya hujjatlari, moliya hisobotlari va boshqaruv ma'lumotlarining to'liqligi va shubhasiz to'g'riliqi;

bank faoliyatida tavakkalchiliklarning aniqlanishi, ular yuzaga kelgan paytda identifikatsiyalanishi va tahlil qilinishi;

bank faoliyatida tavakkalchiliklarning rejalarashtirilishi va boshqarilishi, shu jumladan tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha o'z vaqtida va mos qarorlar qabul qilinishi;

Bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi a'zolariga va Bank Taftishchisiga ish haqi, mukofotlar va badallar to'lovi, shu jumladan uning miqdorlari mosligi, ochiqligi va obyektivligi.

### **3-bob. Siyosat tamoyillari**

7. Bankda Siyosati quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

uzluksizlik. Ichki nazorat tizimining doimiy va tegishlicha ishlashi Bankka meyordan har qanday og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash va kelgusida ular yuzaga kelishini ogohlantirish imkonini beradi;

hisobdorlik. Har bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilib boriladi;

vazifalarning taqsimlanishi. Takrorlanuvchi nazorat funksiyalariga yo'l qo'yilmaydi va ushbu funksiyalar xodimlar o'rtasida muayyan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, aktivlarning yaxshi saqlanishini ta'minlash va ularning inventarizatsiyasini o'tkazish bilan bog'liq funksiyalar bir shaxsning o'zi tomonidan birlashtirilmaydigan tarzda taqsimlanadi;

operatsiyalarning tegishlicha ma'qullanishi va tasdiqlanishi. Moliya-xo'jalik operatsiyalari vakolatli shaxslar tomonidan ularning taalluqli vakolatlari doirasida amalga oshiriladi;

kundalik ichki nazoratni amalga oshiradigan tashkiliy tuzilmaning alohidaligi va uning bevosita Bank Kuzatuv kengashiga funksional hisobdorligi ta'minlanishi;

muntazam rivojlanish va takomillashish. Ichki nazorat tizimi yangi vazifalarni hal qilish, tizimning o'zini kengaytirish va takomillashtirish zarurati hisobga olingan holda moslashishi uchun moslanuvchan sozlanish shart-sharoitlarini ta'minlashga intiladi;

amalga oshiriladigan operatsiyalari tavsifi va hajmiga ichki nazorat tizimining muvofiqligi.

8. Ichki nazorat tizimi nazorat muhiti, tavakkalchilikni baholash jarayoni, axborot tizimi, nazorat bo'yicha harakatalar va nazorat muhitlari monitoringi kabi tarkibiy qismlardan iborat.

### **4-bob. Ichki nazorat organlari**

9. Ichki nazorat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Bank Kuzatuv kengashi,

Ichki audit boshqarmasi, Bank Boshqaruvi, shuningdek Bankning barcha darajalardagi boshqa xodimlari tomonidan amalga oshiriladi, bunda har biri ichki nazorat uchun belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

10. Bankda faoliyat yuritadigan tarkibiy tuzilmalarining funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, javobgarligi, to‘lanadigan ish haqini hisob-kitob qilish tartibi, tarkibga va malakaga talablar Bankning ichki meyoriy hujjatlari bilan nazarda tutiladi. Ushbu hujjatlar bevosita yoki bilvosita ichki nazorat masalalariga daxldor boshqa hujjatlar kabi mazkur Siyosatga zid kelishi mumkin emas.

11. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining ichki nazoratni amalga oshirish sohasida vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

Bank Kuzatuv kengashi a’zolarini, Boshqaruv raisi va Bank tashqi auditorini saylash;

Bankning tashqi auditorini tasdiqlash, uning hisobotlarini ko‘rib chiqish;

yillik hisobotlarni, shu jumladan bankning yillik buxgalteriya hisobotlarini tasdiqlash;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha Bank tashqi auditorining tavsiyalarini ko‘rib chiqish Bankning moliyaviy hisobotlarini to‘liq, ishonchli va o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar va manfaatdorlik bo‘lgan bitimlarni tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilish.

12. Ichki nazorat sohasida Bank Kuzatuv kengashining funksiyasi quyidagilardan iborat:

ichki nazorat tizimining muayyan operatsiyalari va strategiyalari rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va tasdiqlash;

Bank Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida Bank taftishchisi, Bank Boshqaruvi raisi, Bank ichki va tashqi auditning muntazam hisobotlari ma’lumotlariga, boshqa manbalardan olingan ma’lumotlarga, moliyaviy nazorat, operatsion nazorat, qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazorat, ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligini tahlil qilish va baholash natijalari to‘g‘risida xabardor qilish;

samarali ichki nazorat tizimini yaratish va ishslashini ta’minalash;

Ichki audit boshqarmasi, tashqi auditorlik tashkiloti va nazorat organlarining tavsiyalarini va mulohazalarini tezkor bajarilishi bo‘yicha choralarini ko‘rish;

Bank ichki nazorat tizimining o‘zgarishi holatlarida bank faoliyatining xususiyati va ko‘lamiga muvofiqligini nazorat qilish;

ichki nazorat tartibotlarini muntazam ravishda takomillashtirish.

13. Bank Taftishchisi bank faoliyati ustidan moliyaviy-xo‘jalik va huquqiy ichki nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun mas’ul hisoblanadi. Jumladan,:  
Bankning moliyaviy yil faoliyati yakunlari bo‘yicha moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini taftishdan o‘tkazadi;

Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati taftish natijalariga ko‘ra, taftish natijalari

to‘g‘risidagi asosiy xulosalarni o‘z ichiga olgan xulosa tuzadi;

taftish davomida aniqlangan qoidabuzarliklarning ro‘yxatini tuzadi va ularni bartaraf etishni bo‘yicha taklif kiritadi;

Bank Kuzatuv kengashiga, Bank Boshqaruvi Raisiga ko‘rib chiqish va tegishli choralar ko‘rish uchun tekshiruv materiallarini taqdim qiladi.

14. Ichki audit boshqarmasi muntazam nazoratning amalga oshirilishi, aynan Bank tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi, shuningdek buxgalteriya va moliyaviy hisobot to‘liqligi va shubhasiz to‘g‘riligi uchun mas‘ul hisoblanadi.

Ichki audit boshqarmasi o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini ichki nazorat tartib-qoidalalariga rioya etilishini nazorat qilish bo‘yicha quyidagilarni bajaradi:

bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarini tekshirish, umuman ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash;

Bankning ichki hujjatlariga muvofiq Bank xatarlarini va xatarlarini boshqarish tartiblarini baholash metodologiyasining samaradorligini va Bankning ushbu hujjatlari qo‘llanilishining to‘liqligini tekshirish;

Bank nomidan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshirishda xodimlarning lavozim vakolatlariga muvofiqligi ustidan nazorat;

tekshirish natijalari bo‘yicha Bank Kuzatuv kengashiga kamida olti oyda bir marta tavsiyalarni bajarish va aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida, shuningdek bank faoliyatining ayrim turlarida ichki nazorat funksiyalarini bajaruvchi tuzilmalarning tekshirilishi to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish;

buxgalteriya hisobi va hisobotning to‘liqligi, ishonchliligi, o‘z vaqtida bo‘lishini va xolisligini, shuningdek ma’lumot va hisobotni yig‘ish va taqdim etishning ishonchliligin o‘rganish va sinovdan o‘tkazish;

Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar va boshqa bitimlarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholash;

amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, tasdiqlangan yillik va uzoq muddatli rejalgarda muvofiq bank faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy tomonlarini muntazam ravishda tekshirish;

alohida funksiyalar yoki operatsiyalarini bajarilishini tashkil etish bo‘yicha maqsadli tekshirishlar.

15. Quyidagi shaxslar Bank Taftishchisi bo‘lishi yoki Ichki audit boshqarmasidagi lavozimlarni egallash huquqiga ega emaslar:

iqtisodiy sohadagi jinoyatlar yoki tartibga qarshi jinoyatlar uchun sudlanganligi bekor qilinmagan shaxslar;

Bankning Boshqaruv raisi yoki a’zolari hisoblangan shaxslar;

ta’sischilar (aksiyadorlar, ishtirokchilar), Bankka raqobatchi bo‘lgan boshqa yuridik shaxsning xodimlari hisoblangan shaxslar.

16. Bank Taftishchisi va Ichki audit boshqarmasi tarkibiga kiruvchi shaxslarga boshqa talablar ularning faoliyatini qat’iy belgilaydigan ichki meyoriy hujjatlar bilan belgilanadi.

17. Ichki nazorat tizimi faoliyati uchun javobgarlik Boshqaruv raisi zimmasiga yuklanadi. Bankning Boshqaruv raisi ichki nazorat tizimi tartibotlarini joriy qiladi va Kuzatuv kengashni Bankning barcha tavakkalchiliklari, ichki nazorat tizimining jiddiy kamchiliklari, shuningdek ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalarini va natijalarini to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilgan holda, uning samarali ishlashini ta’minlaydi.

18. Bankning har bir xodimi ichki nazorat jarayonida ishtirok etadi. Jalg qilinish darajasi bajariladigan ishning xususiyatiga va lavozim vazifalariga bog‘liq. Nazorat funksiyalarini bajarish uchun xodimlarning shaxsiy javobgarligi ularning lavozim yo‘riqnomalarida va ichki hujjatlarda belgilanadi.

19. Ichki nazorat tizimining tegishlicha faoliyat yuritishi xodimlarning yuqori kasbiy malakalariga ham bog‘liqdir. Bank kadrlarni tanlash, yollash, o‘qitish, tayyorlash tizimi ularning yuqori malakali bo‘lishlarini va ular tomonidan yuqori odob-axloq standartlariga rioya qilinishini ta’minalashi uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi.

## **5-bob. Ichki nazorat tartibotlari**

20. Ichki nazorat tartibotlari Bankning ichki meyoriy hujjatlari bilan belgilangan qoidalarga muvofiq Bank Boshqaruvining barcha darajalarida amalga oshiriladi.

21. Bankdagi ichki nazorat tartibotlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

muvofiglashtirish. Taalluqli vakolatlar berilgan turli tuzilmalar va Boshqaruv xodimlari tomonidan hujjatlarning ma’qullanishi;

avtorizatsiyalash. Xodimlar tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsat olinishi;

solishtirish. Turli manbalardan olingan axborotning to‘liqligini, aniqligini, qarama-qarshi emasligini va to‘g‘riligini tekshirish, shu jumladan buxgalteriya hisobi moddalarini, hisobga olish tizimlari, Bank va uning kontragentlari hisob ma’lumotlari o‘rtasida farqlar mavjud emasligini nazorat qilish;

arifmetik nazorat. Moliya, buxgalteriya va boshqa hujjatlarda hisob-kitoblar, shu jumladan nazorat summalarini hisobining arifmetik to‘g‘riligini tekshirish;

tafovutlar tahlili. Bank faoliyatining haqiqiy ko‘rsatkichlarini rejadagi ko‘rsatkichlar, prognozlar, oldingi davrlar ma’lumotlari, raqobatchilar faoliyati natijalari bilan solishtirish asosida belgilangan maqsadlarga erishish va rejalarini bajarish darajalarini baholash;

inventarizatsiY. Buxgalteriya hisobining shubhasiz to‘g‘riligini va Bank aktivlarining yaxshi saqlanishini ta’minalash maqsadida aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy mavjudligini va sifat tavsiflarini aniqlash va tasniflash;

axborot texnologiyalari nazorat tartibotlari. Foydalanish nazorati, ma'lumotlar yaxlitligi, axborot tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi.

22. Muayyan nazorat tartibotlari mazmuni tarkibiy tuzilmalar tomonidan Bankning maqsadlariga va tarkibiy tuzilmalarning vazifalariga muvofiq ishlab chiqiladi va ichki meyoriy hujjatlari bilan belgilanadi.

### **6-bob. Ichki nazorat organlari faoliyatini monitoring qilish vositasi**

23. Monitoring o'tkazishdan ko'zlangan maqsad Bankning ichki nazorat tizimi samaradorligini, shu jumladan uning o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar bajarilishini ta'minlash imkoniyatini baholash, shuningdek tizim kamchiliklari jiddiyligini aniqlashdan iborat.

24. Bank ichki nazorat tizimini monitoringini doimiy ravishda amalga oshiradi. Ichki nazorat tizimining monitoringi Bankning turli tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi.

25. Bankning ichki nazorat organlari yilning har choragida Bank Kuzatuv kengashi oldida o'z funksional vazifalariga muvofiq o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari to'g'risida hisobot beradi.

26. Bankning bir yil ichidagi moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvlari yakunlari bo'yicha Bank Taftishchisi xulosa tuzadi, ushbu xulosa Bank Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tinglanadi.

27. Tashqi auditor ichki nazorat tizimini tekshirishda ichki nazoratning amaldagi tizimini ko'zdan kechiradi, nazorat vositalarining maqsadga muvofiqligini baholaydi, ichki nazorat tizimi samaradorligi tekshiruvini o'tkazadi.

Ichki nazorat tartibotlarini o'rganish va baholashda xo'jalik operatsiyalarini o'tkazish uchun ruxsat berilganligiga, vazifalar taqsimlanishiga, nazorat tadbirlarini o'tkazishda hujjatlashtirish va qayd etilishga alohida diqqat-e'tibor qaratiladi.

28. Bankning ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash uchun mustaqil professional tashkilotlarni jalb qilish Bank Kuzatuv kengashi qarori bo'yicha tanlov asosida amalga oshiriladi.

29. Ichki nazorat tizimi monitoringi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf qilish uchun yo'naltirilgan.

### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

30. Bank boshqaruvi organlari ichki nazorat tizimini doimiy ravishda monitoring qiladi va samaradorligini baholab boradi.

31. Mazkur Siyosat talablarini buzgan shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

32. Ushbu Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

33. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston

Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

34. Ushbu Siyosatning alohida bandlari O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi yoki Bank Ustaviga zid bo‘lsa, ushbu bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu bandlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining qonunchik hujjatlari normalariga va Bank Ustaviga amal qilinadi.